



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:
dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana: 12-06-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 99932

Obyekt nomi «Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida “Shodlik” MFY RK-3 markaziy qozonxonasini qurish.»

Buyurtmachi - “Ko`p xonadonli uylarni, mukammal va joriy ta`mirlash hamda issiqlik ta`minoti obyektlarini qurish bo`yicha injiniring kompaniyasi” DUK

Bosh loyihachi - “Gazloyiha” MChJ

Litsenziya AL-001009-son, 26.0.2020 yil, O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag`lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov asosida aniqlanadi

Qurilish turi Yangi qurilish.

Murojaat raqami: № 89124

1. Loyihalash uchun asos

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “2023-2025-yillarda O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-465-son qarori.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-dekabrda PQ-4542-son qarori.

Qashqadaryo viloyati deputatlar kengashining 22.07.2022-yildagi VI-49-125-4-0-K/22-son qarori.

Qarshi shahar hokimining 2016-yil 11-fevralda X-189/2-son qarori.

Qashqadaryo viloyati Qurilish Bosh boshqarmasining 2023-yil 20-fevralda 1710-1710401-61706-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig`i.

“O`ZGASHKLITI” Qashqadaryo viloyati filiali tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish yer maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to`g`risidagi xulosasi.

O`zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko`rsatish vazirligi tomonidan tasdiqlanib, Qashqadaryo viloyati hokimligi, Uy-joy kammunal xizmat ko`rsatish boshqarmasi, Bosh arxitektor, buyurtmachi hamda “Issiqlik manbai” DUK bilan 2022-yilda kelishilgan hamda 2023-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`i.

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2023-yil 28-fevralda bosh loyiha tashkiloti hamda buyurtmachi o`rtasida tuzilgan 25674-son shartnoma.

“Hududgaz Qashqadaryo” GTFning 2023-yil 14-aprelda 019604-son texnik sharti.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “ Qashqadaryo hududiy filialining 2023-yil 31-martdagi 19/12-977-son texnik sharti.

“Qashqadaryo suv ta`minoti” MChJning 2023-yil 4-apreldagi 69-son texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha-smeta hujjatlarining "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat:

- 2.1. Loyiha umumiy tushuntirish xati.
- 2.2. Bosh reja.
- 2.3. Arxitektura va qurilish yechimlari.
- 2.4. Issiqlik tarmog`i yechimlari.
- 2.5. Teplomexanik yechimlar.
- 2.6. Tashqi suv ta`minoti va oqova suv tarmog`i.
- 2.7. Elektr ta`minoti.
- 2.8. Gaz ta`minoti.
- 2.9. Atrof muhit tasiridan himoyalash loyihasi.
- 2.10. Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonining o`ziga xos xususiyatlari.

Qurilish maydoni-Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar “Istiqlol” MFY hududida joylashgan bo`lib:

- hududning zilzilabardoshlik ko`rsatkichi - 7 ball.
- hududning hisoblangan zilzilabardoshlik - 8 ball.
- shamolning me`yoriy og`irlik kuchi - 38 kg/m²
- qorning me`yoriy og`irligi - 50 kg/m²
- yerning muzlash qatlami chuqurligi - 0,32 m.
- tuproq cho`kish sharoiti bo`yicha turi - I.

3.2. Bosh reja va arxitektura rejalashtirish yechimlar.

Loyiha bo`yicha ajratilgan hududga yangi qozonxona binosini qurish, elektr nimstantsiyasi qurish rejalashtirilgan hama suyuq yoqlig`i saqlash uchun joy sjratilgan.

Bosh reja bo`yicha qozonxona binosi o`rta qavatli turar-joy binolari orasidagi maydonga joylashtirilgan.

Bosh rejaga asosan obodonlashtirish hamda ko`kalamzolashtirish ishlari loyida ko`zda tutilgan.

Qozonxona binosidan tashqari hududda elektrnim stantsiya, bolalar maydonchalari, dam olish maydonchalari joylashtirilgan.

Qozonxona binosi 1-qavatli, yerto`lasiz, to`rtburchak shaklda loyihalangan bo`lib, atrofi metal panjara bilan o`ralishi loyihada ko`zda tutilgan.

Loyiha tushuntirish xatiga asosan binoning ichki va tashqi devorlari zavod sharoitida tayyorlangan qalinligi 100mm bo`lgan “Sendvich” panellar bilan qoplanadi.

Bino asosiy ko'taruvchi konstruktsiyalari metall konstruktsiyada bajarilgan.

3.3. Konstruktiv yechimlar.

Qozonxona binosi-modul turidagi, metal ustunlar, balkalar fermalar va to'sinlardan iborat bo'lib, o'lchami o'qlari bo'yicha 19,4x30,0 metrni tashkil etadi.

Poydevorlar-B15 W4 sinfli sulfatga chidamli quyma plitadan bo'lib, qalinligi 300 mm.

Tayyorlov qatlami-100 mm qalinlikdagi bitumli shag`aldan.

Loyihada 2 marotaba issiq bitum bilan gidroizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Metal to'siq va metal darvoza.

Metal to'siq enining bir qismi 1,0 metr, 2,0 metr va 2,5 metrli bo'lib, balandligi 1,55 metr, ustunlari 60x60x2,0 mm; 60x80x2,0 mm bo`lgan metaldan.

Metal darvoza- eni 4,5 metr, balandligi 1,55 metr.

Poydevorlar-B 15 sinfli ustunsimon quyma betondan, qirqim o'lchamlari 400x400x400 mm.

Tayyorlov qatlami 100 mm qalinlikdagi bitumli chaqiqtoshdan.

Poydevorning yer bilan tutashadigan qismi bitum bilan 2 marotaba gidroizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Issiqlik tarmog`ining qurilish qisimi.

Ariqlar, ustki yopmalar va to'sinlar- B15 sinfli 3006.1-2-8.1-1-19, 3006.1-2-8.3-1-12 seriyali yig`ma temirbeton elementlardan.

Quyma temirbeton qismlari B15 sinfli quyma temirbetondan bo'lib, qalinligi 200 mm.

Yopnalarning quyma temirbeton qismlari B 15 sinfli hamda quyma to'sinlar -B20 sinfli bo'lib, qirqim o'lchamlari 300x300 mm.

Usrtunlar OP- GOST30732-2020 boyicha quyma betondan.

Tayyorlov qatlami-50 mm qalinlikdagi asfalt beton shag`al asosida bo'lib, qalinligi 100 mm.

Loyihada 1 marotaba 4 mm qalinlikda poliizol TTP bilan goizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Drenaj quduqlarining qurilish qisimi.

Quduqlar-D1500 mm bo`lgan 3.900-3 n.7 seriyali yig`ma elementdan.

Tayyorlov qatlami 100 mm qalinlikda bitum bilan to'yintirilgan shag`aldan.

Issiq bitum bilan 2 marotaba gidroizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Narvonlar-metaldan.

O`rnatish elementlari metaldan.

Isitish kameralari.

Kameralar yakka tartibdagi quyma temibetondan.

Devorlari va tub qismi B15 sinfli sulfatga chidamli 300 mm qalinlikdagi betondan.

Tayyorlov qatlami-50 mm qalinlikdagi asfalt beton shag`al asosida bo'lib, qalinligi 100 mm.

Loyihada 1 marotaba 4 mm qalinlikda poliizol TTP bilan goizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Ustki qismi hamda to'sinlari 3006.1-2.87 seriyali yig`ma temirbetondan.

“Lyuk” “T” cho`yan qopqog`i – GOST3634-99.

Narvonlar-metaldan.

Barcha po`lat narvonlar va boshqa po`latlar namlikga chidamli bo`yoqlar bilan bo`yalishi ko`zda tutilgan.

5,2 m³ suvuq yoqilg`i saqlash joyi-B12,5 sinfli quyma temirbetondan.

Ichimlik suvi idishining o`lchamlari 1,6x1,6x2,35 (h).

Devrlari va tub qismi B15 sinfli sulfatga chidamli 200 mm qalinlikdagi betondan.

Loyihada garizontal va vertikal gidroizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Tayyorlov qatlami 100 mm qalinlikda bitum bilan to`yintirilgan shag`aldan.

Yuroqori qismi- B15 sinfli quyma temirbetondan bo`lib, qalinligi 120 mm.

Transformato nimstansiyasi uchun o`lchami 17,0x4,88 m poydevor ko`zda tutilgan.

Poydevorlar-B 15 sinfli tasmasimon quyma temirbetondan.

Tubining qalinligi 200 mm.

Loyihada garizontal va vertikal gidroizolyatsiya qilish ko`zda tutilgan.

3.4. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Ob`ektning yakuniy smeta xarajatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me`yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan ob`ektning ekspertiza ko`rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12 % QQS bilan hisoblanganda – 46 442 786,219 ming so`mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ushbu obyekt bo`yicha teplomexnik yechimlar, issiqlik tarmog`i, texnologik yechimlar, gaz ta`minoti, tashqi suv ta`minoti va oqova suv tarmog`i hamda elektr ta`minoti ko`rib chiqildi.

Qozonxonada 2 ta MSG 4000 KALORUFER va 2 ta MSG 5000 KALORUFER qozon o`rnatilishi ko`zda tutilgan bo`lib, har birining quvvati 4 MVt va 5 MVt quvvatga ega. Umumiy quvvat 18,0 MVt. Shunda RK-3 qozonxonasining yuklamasi 11,8 Gkal/soatni tashkil etadi. Jumladan 8,4 Gkal/soat -issiqlik manbai va 3,4 Gkal/soat - issiq suv ta`minotini tashkil etadi. Natijada 5 va 6-mikrorayondagi turar joylarni issiqlik manbai bilan ta`minlash rejalashtirilgan.

Asosiy yoqilg`isi gazdan bo`lib, zahira yoqlg`isi suvuq yoqilg`i.

Shuningdek, obyektida gaz taqsimlash punkti (GTP) va elektr nimstansiyasi o`rnatilishi belgilangan hamda qo`shimcha elektr ta`minoti ko`zda tutilgan.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo`yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo`yicha tegishli manfaatdor xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Obyekt quyidagi mutassadi tashilotlar bilan kelishilgan:

-Qashaqadaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi boshqarmasi;

-Qarshi shahar Telekomunikatsiya bog`lamasi;

-“Issiqlik manbai” DUK;

-Obodonlashtirish boshqarmasi;

-“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta`minoti filiali;

-“Qashqadaryo suv ta`minoti” MChJ;

-“Qashaqadaryo hududiy elektr tarmoqlari” AJ;

-“Qashaqadaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni himoya qilishi boshqarmasi bilan kelishilgan.

Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo`shimcha taklif va e`tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza taqdim etilgan ishchi loyihaning arxitektura va qurilish yechimlari, issiqlik tarmog`i yechimlari, teplomexanik yechimlar, tashqi suv ta`minoti va oqova suv tarmog`i, elektr ta`minoti, gaz ta`minoti hamda smeta hisob-kitoblari ko`rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo`shimchalar kiritildi:

-Buyurtmachi tomonidan Bosh loyiha tashkilotining oraliq ekspert xulosasiga javob xatlari taqdim qilindi;

-ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo`yicha smeta harajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan hisoblanganda -158 398,100 ming so`mga kamaytirildi.

-ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo`yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan hisoblanganda -ming so`mga kamaytirildi.

-materiallari narxlari, ish hajmlari, me`yorlari, pudratchining boshqa xarajatlari va transport xarajatlari miqdorini aniqlashtirish natijasida o`zgartirildi.

Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-son va 256-son, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlar talablariga amal qilinsin.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma`lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob`ektlar boshlang`ich qiymati Davlat statistika qo`mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo`yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o`rtacha narxlar hamda o`rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o`tkazish, resurslarning davriy o`rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta`minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-son farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, e'tiroz va qo'shimcha ko'rsatmalar mavjud emas.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Obyekt bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda 2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-465-son qarorining 7-ilova 79-bandiga ko'ra qurilish uchun 22 750,0 mln so'm ajratilgan. Buyurtmachi taqdim etilgan barcha ishlarni bajarish uchun o'rnatilgan tartibda tegishli tashkilotlar bilan kelishuv bayonnomasi asosida qo'shimcha mablag' ajratilishi kelishilsin va limit miqdori qayta ko'rib chiqilsin.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida "Shodlik" MFY RK-3 markaziy qozonxonasini qurish" ishlarini amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachining boshqa xarajatlarsiz va 12% QQS bilan hisoblanganda 46 284 388,119 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlar - 24 968 012,324 ming so'mni;
- qurilish materiallari va mahsulotlari hamda konstruksiyalar uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar - 11 201 852,941 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda - 1 642 194,660 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 1 059 898,596 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27 %) - 2 401 211,508 ming so'mni;
- sug'urtalash xarajatlari - 52 176,505 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (12 %) - 4 959 041,585 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari "Shaffof qurilish" MAT (0,05%) - 23 142,194 ming so'mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning

qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan-"Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

Ishtirokchi ekspert: Karimov M.O`.

Bosh mutaxassis: Asatillayev Sardor Asatilla o'g'li

Ishtirokchi ekspertlar:

KURPELYANSKAYA IRINA BORISOVNA

Sagatov Mirabid XXX 529555046

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

DOSMUXAMEDOVA MARIYA VALEREVNA

Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Alimjanov Muzaffar Anvarovich